

NATURAL ISHLAB CHIQRISHDAN TOVAR ISHLAB CHIQRISHGA O‘TILISHI

Iskandarov Bekzod Abdijalilovich

SamISI, “Iqtisodiyot nazariyasi”

kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola jahon amaliyotida iqtisodiyot nazariyasini o‘rganish, iqtisodiyot nazariyasining rivojlanish bosqichlarini tahlil etish, natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o‘tilishi muallif tomonidan o‘rganilgan hamda fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot nazariyasi, rivojlangan davlatlar tajribasi, natural ishlab chiqarish, tovar ishlab chiqarish, nazariya model.

TRANSITION FROM NATURAL PRODUCTION TO COMMODITY PRODUCTION

Iskandarov Bekzod Abdizhalilovich

senior teacher of department

“Economic theory”, SamIES

Abstract: In this article, the study of the theory of economics in world practice, the analysis of the stages of development of the theory of economics, the transition from natural production to the production of goods are studied by the author, and opinions are given.

Key words: economic theory, experience of developed countries, natural production, commodity production, theory model.

Insoniyatning iqtisodiy rivojlanish tarixida ijtimoiy xo‘jalikni tashkil etish va yuritishning ikki shakli farqlanadi: natural va tovar xo‘jaligi.

Xo‘jalik yuritish shakllarining har biri, unga xos bo‘lgan ishlab chiqarish munosabatlarining mazmunidan kelib chiqqan holda, iqtisodiyotning uchta eng muhim savoliga: «nima ishlab chiqarish?», «qanday ishlab chiqarish?» va «kim

uchun ishlab chiqarish kerak» degan savollarga o‘z mohiyatan kelib chiqqan holda javob beradi.

Xo‘jalikning birinchi shakli bo‘lgan natural ishlab chiqarish natijasida yaratilgan mahsulot, ishlab chiqaruvchining o‘z ehtiyojlarini qondirishi uchun, ichki xo‘jalik ehtiyojlari uchun mo‘ljallanadi. Demak, o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun ne‘matlarni ishlab chiqarish **natural ishlab chiqarish**, shunday ishlab chiqarishga asoslangan xo‘jalik esa – natural xo‘jalik deyiladi.

Iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning ushbu shaklida iste‘molning hajmi va tarkibi ishlab chiqarishning hajmi va tarkibiga deyarli mos keladi, ularning o‘zaro aloqadorligi juda yengil yuz beradi, chunki u bitta xo‘jalik doirasida amalga oshiriladi. Bunday munosabatlar dastlab ibtidoiy jamiyat davrida paydo bo‘lgan. Natural xo‘jalik shakli barcha iqtisodiy jarayonlarni bir xo‘jalik doirasida qat’iy cheklab qo‘yadi, tashqi aloqalar uchun yo‘llarni ochmaydi. Ishchi kuchi ma’lum bir xo‘jalikka qat’iy bog‘lab qo‘yiladi. Qishloq xo‘jalik jamoalarining ming yillar davomida saqlanib qolishi aynan shu bilan izohlanadi. Xo‘jalikning natural shakli ishlab chiqarish rivojining shunday darajasini aks ettiradiki, bu uning o‘ta cheklangan maqsadini – hajmi bo‘yicha ko‘p bo‘lmagan va sifat tarkibi bo‘yicha bir xil bo‘lgan ehtiyojlarning qondirilishini ta’minlaydi. Keyingi bosqichlardagi mehnat taqsimoti va asta-sekin tovar massasining ko‘payishi, jamiyat rivojida izchil ravishda, natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishiga o‘tilishini ta’minladi.

Asta-sekin natural xo‘jalikdan tovar xo‘jaligiga o‘tish jarayoni sodir bo‘ldi. Mahsulot va xizmatlarni shaxsiy ehtiyojlari uchun emas, balki bozorda sotish uchun ishlab chiqarish tovar xo‘jaligi deb, bunday ishlab chiqarishga asoslanuvchi xo‘jalik esa – **tovar ishlab chiqaruvchi** deb ataladi. Tovlar xo‘jaligida kishilar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar, ularning mehnat mahsulotini oldi – sotdi qilish ya’ni, bozor orqali namoyon bo‘ladi.

Tovar xo‘jaligi natural xo‘jalikdan prinsipial jihatdan farq qilib, ularning o‘rtasidagi tafovutlar 1 – jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Natural va tovar xo‘jaliklarining asosiy farqlari

№	Асосий жиҳатлари	Натурал хўжалик	Товар хўжалиги
1	2	3	4
1	Ишлаб чиқаришнинг асосий мақсади	Шахсий эҳтиёжларни кондириш	Бошқа товарларга айирбош-лаш, бозорда сотиш
2	Ишлаб чиқариладиган маҳсулотнинг таркиби	Эҳтиёж ва имкониятлардан келиб чиққан ҳолда олдиндан аниқланади	Бозордаги талаб ва ишлаб чиқарувчиларнинг манфаат-лари асосида аниқланади
3	Истеъмолчини жалб этиш учун кураш	Йўқ	Кураш мавжуд бўлади ва товар хўжалигининг ривожланиши билан кучаяди
4	Ишлаб чиқарилган маҳсулотнинг истеъмол қилиш даражаси	Барча ишлаб чиқарилган маҳсулот тўлиқ истеъмол қилинади	Бир қисм маҳсулот ва унинг айрим турлари сотилмасдан қолади
5	Ишчи кучининг ишлаб чиқариш жараёнида иштироки тамойиллари	Ишлаб чиқариш жараёнида фақат ўз ишчи кучи ёки оила аъзоларининг ишчи кучидан фойдаланилади	Ишлаб чиқариш жараёнида асосан ёлланма ишчи кучидан фойдаланилади
6	Меҳнатнинг ижтимоий тақсимооти	Йўқ	Ижтимоий меҳнат тақсимооти тизими яхши ривожланган. Ишлаб чиқариш алоҳидалашган ҳолда амалга оширилади
7	Ишлаб чиқариш ва истеъмол ўртасидаги алоқадорлик	Бевосита	Ишлаб чиқариш ва истеъмол ўртасидаги алоқа бозор билан воситаланган

Tovar xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos usuli bo‘lib, u uzoq yillar davomida natural xo‘jalik negizida vujudga keldi. Natural xo‘jalikdan tovar xo‘jaligiga o‘tishning asosiy sabablari:

Birinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida mulkning paydo bo'lishi, xususiy tovar ishlab chiqaruvchilarning alohidalashuvi va ayrim mahsulot turlarini ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi bozor ishlab chiqaruvchilari o'rtasida mahsulotni ayirboshlash zaruriyatini taqozo etdi.

Ixtisoslashuv mehnat unumdorligining o'sishiga olib keldi, tovarni ayirboshlash nafaqat zaruriy, balki foydali ham bo'lib qoldi. Vaqtni tejash qonuni va moddiy resurslardan samarali foydalanish, xususiy mulkni ko'paytirish tovar xo'jaligi rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Ayirboshlash jarayoniga jalb etilgan ishlab chiqaruvchilar bozor orqali birlariga tobora ko'proq bog'liq bo'lib qoldilar.

Rivojlanishining dastlabki davrlarda, jamoalar, katta yer maydonlariga ega quldorlar – feodal va dehqon xo'jaliklari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar o'rnatilishiga yordam berib, tovar xo'jaligi ishlab chiqarishning rivojlanishiga qo'shimcha, ilgari mavjud bo'lmagan, natural xo'jalikka xos bo'lmagan imkoniyatlarni ochdi.

Tovar xo'jaligi vujudga kelishi va rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari va shart – sharoitlari quyidagilarga asoslanadi:

1. Mehnatning ijtimoiy taqsimoti. Ijtimoiy mehnat taqsimoti – bu har xil mehnat turlarining (ishlab chiqarishning) birgalikda mavjud bo'lishidir: qishloq xo'jaligidan (dehqonchilikdan) ajralib chiqadi, uning asosida sanoat shakllanadi. Sanoat, o'z navbatida, turli tarmoqlar va ishlab chiqarishlarga bo'linadi: oziq-ovqat, to'qimachilik, mashinasozlik va boshqalar. Ular o'rtasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar tovar shaklida almashtiriladi. Bu esa ishlab chiqaruvchilarning qandaydir ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini anglatadi. Ixtisoslashuv mehnat unumdorligining o'sishi uchun sharoit yaratib, kam muqobil qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga imkoniyat yaratadi.

2. Tovar ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy alohidalashuvi xususiy

mulkning shakllanishi. Iqtisodiy alohidalashuv ishlab chiqaruvchi tomonidan o‘z xo‘jalik faoliyati bo‘yicha mustaqil qarorlar qabul qilinishini anglatadi.

Aynan ushbu ikki holat tovar ishlab chiqarishning zarurligini va bozorning vujudga kelishi shart-sharoitlarini taqozo etdi. Mehnat mahsuloti bozorda tovarga ayirboshlash yoki sotish predmetiga aylanadi, ishlab chiqaruvchilar esa tovar ishlab chiqaruvchilarga aylanadi.

Tovar xo‘jaligini yurishning ikki shakli farqlanadi: oddiy va rivojlangan. Oddiy tovar ishlab chiqarish – bu hunarmandlar va dehqonlarning xo‘jaligidir. U shaxsiy mehnatga asoslanib, bozor bilan aloqalar ishlab chiqarilgan mahsulotning ortiqcha qismini sotish orqali amalga oshiriladi. Kapitalistik tovar xo‘jaligi yollanma mehnatga asoslanadi va bozor bilan to‘liq bog‘langan bo‘ladi. Ularni xo‘jalik faoliyatining moddiy sharoitlariga xususiy mulkchilik birlashtiradi.

Shu tariqa tovar xo‘jaligi, yagona bo‘lmasada, ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etishning yetakchi shakli hisoblanadi va bozor vositasida bog‘liq bo‘lgan, alohidalashgan tovar ishlab chiqaruvchilar jamiyatini namoyon etadi. Aksariyat holatlarda ishlab chiqarish va iste‘mol o‘rtasidagi aloqalar bozor bilan bog‘lanib, natural xo‘jalik kam va cheklangan xarakterga ega bo‘ladi. Bunday sharoitlarda alohidalashgan tovar ishlab chiqaruvchilar, ishlab chiqaruvchi vositalarning mulkdori sifatida, o‘zini xavf– xatarga qo‘ygan holda, o‘z tavakkalchiligi va mulkiy javobgarligi asosida, xo‘jalik qarorlarini mustaqil qabul qiladilar. Tovar ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotning eng muhim uchta savollarini mustaqil hal qiladi. Bozordagi keskin raqobat sharoitida ularning xo‘jalik faoliyati shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mc Connell, Bruc. Economics. 19th edition. Mcgraw-hill/Irvin, USA,2014
2. N.Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA 2014.

3. Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus. Economics. 19th edition.
McCraw- Hill Companies. USA. 2009

4. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.
– T.: “Barkamol fayz media” 2017. - 783 – bet.